O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
FILOLOGIYA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

M.Asatulloyeva
Professional so‘zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir 5
R.A.Ortiqov
Ingliz mifologiyasini talabalarga o‘qitishning zamonaviy asoslari 10
Q.V.Yo‘lchiyev
O‘zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlilik 14
A.G.Sabirdinov
Mirtemir she’rlarining milliy jozibasi 19
D.G‘.Gafurova
Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri 22

TILSHUNOSLIK

M.T.Abdupattoev
Muallif idiostilining lingvopoetik xususiyatlari 27
Н.Х.Алиева
Актуальность изучения диалектной лексики английского языка 32
Н.Х.Алиева
Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка 35
Н.Х.Алиева
Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии 41
L.A.Abdullayeva
Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida 46
M.R.Allambergenova
Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi 51
U.M.Askarova
Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) 56
A.A.Qosimov
Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language 61
M.E.Qobilov
Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya 69
G.X.Ismoilova
O‘zbek va ingliz tillarida “farsihta/angel” va “shayton/devil” leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili 73
U.M.Askarova
Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o‘rni 78
J.A.Akhrorova
Metonymy and its relation with discourse 81
Sh.U.Nosirova
Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili 84
Sh.U.Nosirova
Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o‘rni 89
U.M.Askarova, D.X.Xolbekova
Matn tuzilishida tinish belgilarining o‘rni va vazifalari 93
A.R.Kosimov
So‘zlarning shaxsga hissiy ta’siri xususiyatlari 97
Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова
Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии 101

З.С.Аманова
Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве 105

TILSHUNOSLIK

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a94

UO'K: 81'272:811.111:331

INGLIZ KASBIY MULOQOTIDA PRAGMATIK VOSITALARNING O'RNI

РОЛЬ ПРАГМАТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТSIИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

THE ROLE OF PRAGMATIC MEANS IN ENGLISH PROFESSIONAL COMMUNICATION

Nosirova Shoiraxon Ulug'bek qizi
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada kasbiy muloqotning samaradorligini ta'minlashda pragmatik vositalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, so'zlovchining niyati, tinglovchining ijtimoiy mavqeyi, muloqot konteksti va madaniy omillarga mos ravishda til birliklaridan kerakli o'rinlarda foydalanishning muloqot samaradorligiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy asosda yoritib beriladi. Misollar orqali turli sohalarda (tibbiyot, pedagogika, huquqshunoslik va marketing) pragmatik vositalarning tutgan o'rni tahlil qilinadi.

Аннотация

В данной статье анализируется важность прагматических инструментов в обеспечении эффективности профессиональной коммуникатsiи. В частности, на научной основе освещается влияние намерения говорящего, социального положения слушателя, контекста общения и использования языковых единиц в нужных местах в соответствии с культурными факторами. На примерах анализируется роль прагматических инструментов в различных областях (медицина, педагогика, юриспруденция и маркетинг).

Abstract

This article analyzes the importance of pragmatic tools in ensuring the effectiveness of professional communication. In particular, the influence of the speaker's intention, the social position of the listener, the context of communication and the use of language units in the desired places in accordance with cultural factors is highlighted on a scientific basis. Examples analyze the role of pragmatic tools in various fields (medicine, pedagogy, jurisprudence and marketing).

Kalit so'zlar: *kasbiy muloqot, pragmatik vositalar, bilvosita nutq akti, diskurs, muloqot konteksti, modallik, ijtimoiy rol, kasbiy etika*

Ключевые слова: *профессиональная коммуникатsiя, прагматические средства, косвенный речевой акт, дискурс, коммуникативный контекст, модальность, социальная роль, профессиональная этика*

Key words: *professional communication, pragmatic means, indirect speech act, discourse, communication context, modality, social role, professional ethics*

KIRISH

Zamonaviy hayotimizda ijtimoiy va kasbiy hayotning barcha jabhalarida samarali muloqotga erishish masalasiga dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, kasbiy muhitda til vositalarini to'g'ri tanlash va ularni kontekstga mos qo'llay bilish bu faqat til bilish emas, balki muloqot madaniyatining yuqori darajasini ham ko'rsatib turadi. Zamonaviy kommunikatsiya jarayonida, ayniqsa kasbiy muloqotda, faqatgina grammatik va leksik jihatlar emas, balki pragmatik vositalarning to'g'ri qo'llanilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikning pragmatika yo'nalishi til birliklarining ijtimoiy, psixologik va kommunikativ jihatdan qanday ishlashini o'rganadi. Shuning uchun ham kasbiy muloqotda pragmatik vositalarga nafaqat tilning "qanday ifodalanishi", balki "nimani anglatishi"ni belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi.

Pragmatik vositalar – bu muloqotda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni, muloqot maqsadini, kontekstni hisobga olgan holda til birliklarining qanday ishlatilishini belgilovchi vositalardir. Ular orasida ehtimollik, ishonch yoki shubhani bildiruvchi modal vositalar *(may, must, should, probably, I think, I believe…)* [9], fikrni bilvosita va muloyim tarzda ifodalaydigan yumshatuvchilar *(perhaps, sort of, kind of, maybe, I guess)*, ijtimoiy masofa va hurmatni saqlovchi birliklar *(would you mind…, could you please…, I'd appreciate if…)* [3],

nutqning oqimliligi va izchilligini ta'minlaydigan diskurs markerlar *(well, actually, anyway, so, however)* [4,10], gapning sintaktik shakli bilan aytilmagan va fikrning tag zamirida so'zlovchining asl niyatini bildiradigan bilvosita illokutiv aktlar *(It's cold here – derazani yopish iltimosi sifatida)* [5] kabilar muhim o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ingliz tilida so'zlashuvchi turli kasb egalari muloqot xulqining pragmatik jihatdan o'rganilishi e'tiborga molik sohalardan biri sifatida katta ilm ahlini o'ziga jalb qilib kelayotgani bejiz emas. Mazkur soha rivojiga J.Heritij o'zining shifokorlarning tashxis qo'yish, maslahat berish va mas'uliyat masalalarida pragmatik vositalarning tutgan o'rniga bag'ishlab yozgan asari orqali ham katta hissa qo'shgan [6]. K.Aijmer professional kontekstlarda ishlatiladigan pragmatik va diskurs vositalarini, epistemik modallik, frazali birikmalar va boshqalarni korpus asosida o'rgangan [1]. Madaniyatlararo kasbiy va biznes muloqotlarida pragmatik vositalarning ahamiyati masalalari o'rganilgan E.Malyuga va S.Orlova monografiyalari ham kasbiy kontekstda pragmatik strategiyalar, jargon, eufemiya va kasbiy diskurs tahlilini batafsil bayon etgan [8]. "Kasbiy diskurs" asari orqali K.Kong ushbu sohani chuqur tadqiq ostiga oladi va qimmatli ma'lumotlar bilan bo'lishadi [7].

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tibbiyot sohasida shifokor va bemor o'rtasidagi muloqot jarayonidagi pragmatik vositalar orqali avvalo ularning ijtimoiy rollari ko'rinadi. Shifokorlar odatda bilvosita nutq aktlari, muloyimlik, xushmuomalalik ifodalovchi modal iboralar, yumshatuvchi so'zlar va ehtiyotkor gap tuzilmalari orqali bemor va uning yaqinlariga murojaat qiladi. Bular tibbiyot sohasidagi axloqiy-me'yoriy talablarni, ruhiy barqarorlik va kasbiy etikani saqlashda o'z o'niga egadir. Ko'pincha shifokor bemor bilan muloqot qilganda bevosita buyruq berishdan ko'ra yumshoqroq, ishonchli shakllardan foydalanish holatlari kuzatiladi. Masalan:

"Let's not alarm the patient just yet" (Hozircha bemorni xavotirga solmay turaylik) (A.Verghese "Cutting for Stone")

Bunda "Let's not..." ifodasi orqali bilvosita illokutiv akt, ya'ni buyruq emas, maslahat ohangida shifokor hamkasbiga qo'yilgan og'ir tashxis haqida darhol aytmaslikni taklif qilmoqda.

Bemorni tinchlantirish, holatni nazoratda turganini bildirish orqali ishonchni mustahkamlashga ham erishiladi:

"It appears to be a minor issue, but we will monitor it closely". (Bu kichik muammoga o'xshaydi, lekin uni yaxshilab nazorat qilamiz) (A.Gawande "Complications: A surgeon's Notes on an Imperfect Science")

Misolda "It appears to be ..." ifodasi orqali modallik, "we will monitor it closely" orqali esa ishonch bilan so'zlash va tinglovchida ham ishonch, suyana olish tuyg'ularini uyg'otish maqsad qilinganligi seziladi.

Kasbiy etika va bemorning yaqinlariga nisbatan hamdardlik masalalaridan kelib chiqqan holda bilvosita va hissiyotlarni hisobga olib xabar yetkazish holatlari ham shifokorning og'ir ahvoldagi bemorning qarindoshlariga murojaat qilgan quyidagi misolida ham ko'rinadi:

"I'm afraid there is not much more we can do at this point" (Qo'rqamanki, qo'limizdan keladigan hech narsa qolmadi) (S.Maugham "The Painted Veil")

Misolda "I'm afraid..." deb gap boshlash orqali shifokor salbiy xabarni muloyimlik bilan, hamdardlik bilan yetkazmoqchi ekanligi ma'lum.

Boshqa bir misol orqali ham ko'raylik:

"I do not mean to alarm you, but I believe your condition may require further attention" (Sizni xavotirga solmoqchi emasman, lekin sizning ahvolingiz qo'shimcha tekshiruvni talab qilishi mumkin) (M.Shelley "Frankenstein")

Bunda "I do not mean to alarm you..." yumshatish va xushmuomalalik strategiyalari birlashgan holda tinglovchini xafa qilmaslikka intilishi va "may require" ehtimollik bildiruvchi modallikni ifodalash bilan birga yumshatilgan, ijtimoiy maqomni hurmat qilgan tarzda axborot yetkazilgan.

Pragmatikaning muhim ahamiyati huquqshunoslik sohasidagilar uchun ham ayniqsa e'tiborlidir. O'ziga xos rasmiy, aniq va ijtimoiy mas'uliyatli muloqot shakllariga ega ekanligi bilan ajralib turadigan ushbu soha egalari (advokat, sudya, prokuror) aniq, tushunarli va mantiqan izchil bo'lgan muloqotga ega bo'lishlari talab etiladi. Tilning kontekstdagi ishlatilishini o'rganuvchi fan

sifatida pragmatika huquqiy muloqotda so'z va iboralarning qanday qabul qilinishini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

"But there is one way in this country in which all men are created equal – there is one human institution that makes a pauper the equal of a Rockefeller, the stupid man the equal of an Einstein…that institution, gentlemen, is a court" (Ammo bu mamlakatda barcha odamlar teng yaratiladigan bir yo'l bor; kambag'alni Rokfeller bilan, ahmoq odamni Eynshteyn bilan tenglashtiradigan yagona insoniy muassasa bor… janoblar, bu muassasa suddir) (H.Lee "To kill a Mockingbird")

Ushbu misolda so'zlovchi auditoriyaning e'tiborini jalb qilish va sud tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash uchun ta'sirli ritorik vositalardan foydalanadi va sud oldida tenglik bor ekanligini bir faqirni Rokfeller bilan, ahmoqni esa Eynshteyn bilan tenglashtirish orqali chiroyli tushuntirib beradi.

Yana bir misolda esa ritorik savol berish orqali fikr ifodalashda ta'sirchanlik kuchaytirilganlik holatlari aks etganini ko'rishimiz mumkin:

"Did he not say that he would see me damned at first?" (Axir u avval boshda meni barbod bo'lishimni istashini aytmadimi?) (Ch.Dikkens "Bleak House")

Advokatning yuridik til bilan tahdid qilgan holati quyidagi misolda berilgan:

"Let me be very clear. If you breach this agreement, we will prosecute you to the fullest extent of the law" (Aniq qilib aytay. Agar bu kelishuvni buzsangiz, biz qonunning eng qat'iy choralarini qo'llab sizni javobgarlikka tortamiz) (J.Grisham "The Firm")

Bu yerda "Let me be very clear" ifodasi ma'no yumshatuvchisi emas, balki fikrni yanada aniqlashtirishini anglatmochi bo'lgan kirish so'z sifatida qo'llangan.

Pragmatik jihatdan illokutiv akt, ya'ni do'stona shaklda aytilgan rasmiy ogohlantirish (sud zalida guvohni bevosita ayblamasdan, lekin mazmunan ogohlantirish)ni quyidagi misol ko'rsatib beradi:

"May I remind you that you are under oath?" (Siz hozir qasamyod ostida ekanligingizni eslatib o'tishimga ijozat bering) (A.Kristi "Witness for the Prosecution")

Jamoa muhokamasi vaqtida huquqiy me'yorlarga rioya qilishga chaqiriq "aren't in evidence", ya'ni faktlar asosida qaror qabul qilish kerakligi ta'kidlangan o'rinda ham seziladi:

"We're not here to go into facts that aren't in evidence" (Biz dalillar orasida mavjud bo'lmagan faktlarni muhokama qilish uchun bu yerda emasmiz) (R.Rose "Twelve Angry Men")

Pedagog xodimlar nutqida ham presuppozitsiya, nutqiy aktlar, odob-axloq normalariga oid strategiyalar, nutqni tartibga soluvchi vositalar, kontekstga bog'liq bo'lgan so'zlar va yumshatuvchi ifodalar kabi ko'plab ko'rinishlarda pragmatika mavjudligi seziladi. Quyidagi misolda o'qituvchining o'quvchiga nisbatan hurmat saqlagan holda qoidani tushuntirishi, bilvosita illokutiv akt orqali muloyimlik ortidagi bosim o'tkazish holatlari keltirilgan:

"I'm sure you understand why this rule is important" (Ishonchim komilki, siz nima sababdan bu qoida muhimligini tushunib turibsiz) (R.Dahl "Matilda")

Boshqa bir misoldan esa o'qituvchining o'quvchilar e'tiborini tortgan holda to'g'ridan-to'g'ri murojaati, qat'iy buyrug'i va holatga moslashuvchanligi yumshoqlik bilan davom ettirilganligi ma'lum:

"Children, you must listen carefully. Things are not always what they seem" (Bolalar, diqqat bilan eshitishingiz kerak. Narsalar doim ko'ringanidek bo'lavermaydi) (S.Lewis "The Lion, the Witch and the Wardrobe")

Bundan tashqari, o'qituvchilar nutqida diskurs bog'lovchilaridan foydalanish ham sezilarli ajralib turadi: *"So, let's begin", "Allright, moving on…", "Now, as we discussed earlier…"*

Biznes va marketing sohalarida til faqatgina aloqa vositasi emas, balki strategik vositaga ham aylangan holda iste'molchilarga ta'sir qilish, ishonch uyg'otish, xaridga undash, hamkorlikni mustahkamlash kabi funksiyalarni ham bajaradi. Xaridga undashda ijtimoiy isbot vositasi sifatida ishlatiladigan presuppozitsiyaga quyidagi jumla misol bo'la oladi:

"Customers who bought this item also bought…" (Bu mahsulotni sotib olgan xaridorlar …ni ham sotib olishdi) (Amazon reklamasida)

Bu ifoda orqali ma'lum mahsulotga qiziqish bildirgan va sotib olgan xaridorlarni deyarli bir xil deb o'ylab, ularda ham boshqa bir mahsulotga qiziqish bo'lishi ehtimolini oldindan mavjud deb hisoblashi ko'rinadi.

Boshqa bir misolda esa brend va iste'molchi o'rtasidagi emotsional aloqa mustahkamlanishi uchun inklyuziv ko'rsatkichdan va buyruq aktidan mahorat bilan foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin:

"Let's put a thousand songs in your pocket" (Keling 1000 ta qo'shiqni cho'ntagingizga solib qo'yamiz) (S.Jobs "Apple mahsulot taqdimotidan)

Tesla press-relizida quyidagicha fikr bayon etilgan:

"Our mission is to accelerate the world's transition to sustainable energy" (Bizning missiyamiz dunyoning barqaror energiyaga o'tish jarayonini tezlashtirish)

Mazkur gapda presuppozitsiya (transition to sustainable energy) va kishilik ko'rsatkichlaridan (our) unumli foydalanilgan. "Accelerate" so'zi ortida esa ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish jarayoni avvaldan boshlanganlik presuppozitsiya kelib chiqadi. Fikrni "our" bizning missiyamiz deyishida ham brendni jamoaviy birgalikda harakatini ham ta'kidlashi sezilib turadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, pragmatik vositalar nafaqat til vositasi, balki muloqotni tartibga soluvchi sotsiopsixologik vosita hisoblanadi. Ular yordamida nutq hurmat asosida quriladi, tinglovchining ijtimoiy maqomi va ruhiy holati hisobga olinadi, so'zlovchi o'z fikrini ancha yumshoq, ta'sirli va kontekstga mos tarzda yetkazib bera oladi va kasbiy muhitda professional til madaniyati shakllanadi. Bugungi kunda har bir kasbiy soha vakilining muloqotda pragmatik yondashuvga ega bo'lishi bu nafaqat samarali aloqa, balki kasbiy etikaga rioya qilishning ham muhim omilidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aijmer, K. (2012). Understanding pragmatic markers: A variational pragmatic approach. Edinburgh University Press https://doi.org/10.3366/edinburgh/9780748641051.001.0001
2. Aijmer, K. (1996). Conversational routines in English: Convention and creativity. Longman
3. Brown, P. & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage (Vol.4). Cambridge University Press https://doi.org/10.1017/CBO9780511813085
4. Fraser, B. (1999). What are discourse markers? Journal of Pragmatics, 31(7), 931-952
5. Grice, H.P. (1975). Logic and Conversation. In P.Cole & J.L.Morgan (Eds.), Syntax and semantics (Vol. 3, pp. 41-58). Academic Press.
6. Heritage, J. (2018). The diagnostic moment: A study in US primary care. Social Science & Medicine, 213, 1-8.
7. Kong, K. (2014). Professional discourse. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9781139088319
8. Malyuga, E. N., & Orlova, S. N. (2018). Linguistic pragmatics of intercultural professional and business communication. Springer.
9. Palmer, F.R. (2001). Mood and Modality (2nd ed.). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9781139167178
10. Schriffrin, D. (1987). Discourse markers. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511611841